

O‘ZBEKISTON TELEVIDENIYESI: KECHA VA BUGUN

Jamolova Jasmina

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Teleradio jurnalistikasi yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya:

Shubhasiz, televideniyeining ochilishi o‘z davrida xalqimiz hayotida chin ma’noda o‘ziga xos unutilmas voqea bo‘ldi. Bugun yangiliklar ko‘zgusidan jur‘at bilan gapirayotgan jurnalist shijoati o‘zgacha, maqsad va muddaosi ayon, tili burro, qo‘rquv yo‘q. Muammolarni ochiq aytish bor, rahbarlarga xalqni qiynayotgan masalalar yechimini so‘rab mikrofon tutish bor, javobni randalash yo‘q, vaziyatni boricha olib chiqish bor. Bu – milliy telejurnalistikamizning bugungi qiyofasidir.

Kalit so‘zlar: Jurnalistika, radio, telekanal, yangilik.

Bugun yangiliklar ko‘zgusidan jur‘at bilan gapirayotgan jurnalist shijoati o‘zgacha, maqsad va muddaosi ayon, tili burro, qo‘rquv yo‘q. Muammolarni ochiq aytish bor, rahbarlarga xalqni qiynayotgan masalalar yechimini so‘rab mikrofon tutish bor, javobni randalash yo‘q, vaziyatni boricha olib chiqish bor. Tongdami yo shomda televizorni yoqsak, mamlakat va xorij hayotiga doir muhim yangiliklar aytilayotgan bo‘ladi: “Prezidentimizning alohida ko‘rsatmalariga asosan, O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Yuzlab yoshlar, xotin-qizlar muammolari o‘rganildi, ularning aksariyati ishga joylashtirildi, tadbirkorlikka jalb etildi...”. O‘ylab qolasan kishi, bundan uch-to‘rt yil oldin kambag‘allar yo‘qmidi? Bor, hatto hozirgidan ham ancha ko‘p edi. Lekin buni aytish uchun siyosiy iroda yo‘q edi, ayniqsa, jurnalistlarimiz aytolmasdi.

Bugun yangiliklar ko‘zgusidan jur‘at bilan gapirayotgan jurnalist shijoati o‘zgacha, maqsad va muddaosi ayon, tili burro, qo‘rquv yo‘q. Muammolarni ochiq aytish bor, rahbarlarga xalqni qiynayotgan masalalar yechimini so‘rab mikrofon tutish bor, javobni randalash yo‘q, vaziyatni boricha olib chiqish bor. Bu – milliy telejurnalistikamizning bugungi qiyofasidir. Ha, aslida ham jurnalist va jurnalistika jamiyatda xuddi shunday bo‘lmog‘i lozim. O‘zbekistonda televideniye tashkil topgan kun arafasida xayolimizdan shu kabi o‘ylar o‘tdi. Televideniye tarixiga bir qur nazar solamiz. Insoniyat tarixidagi buyuk kashfiyotlardan biri – televizor Toshkentda yaratilganini ko‘pchilik yaxshi biladi. 1928-yil 26-iyul kuni



o'zbekistonlik ixtirochilar B.Garabovskiy va I.Belyanskiy tomonidan yaratilgan ilmiy-texnik ishlanma – “telefot” maxsus komissiya sinovidan o'tkazilib, dunyoda birinchi televizor paydo bo'lishiga sabab bo'ldi va maxsus patent berildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, televideniyeining ilk ko'rsatuvlari 1936-yilda Buyuk Britaniya va Germaniyada, 1938-yilda tajriba sinov tariqasida Moskva va Sankt-Peterburgda, 1941-yilda esa AQSHda efirga uzatila boshlangan. Afsuski, xalqimiz insoniyatga oynai jahonni armug'on qilgan bo'lsada, uning efir namoyishlaridan biroz kech bahramand bo'ldi. Albatta, buning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy sabablari bor edi. Xullas, Toshkentda televizion ko'rsatuvlarni muntazam efirga uzatish 1956-yilning 5-noyabridan amalga oshirilgan.

Shubhasiz, televideniyeining ochilishi o'z davrida xalqimiz hayotida chin ma'noda o'ziga xos unutilmas voqea bo'ldi. Bunday quvonchli tarixiy voqeaga guvoh bo'lgan, Toshkent telemarkazi ochilishi marosimida ishtirok etgan va 1961-1994-yillarda O'zbekiston televideniyesida faoliyat ko'rsatgan jurnalist Anbara Otamurodova o'zining “Radio va televideniye – tafakkur gultoji” (2018) kitobida bu tarixiy lahzalarni eslab bunday yozadi: “...hayotimizdagi o'sha baxtli kun – 1956-yilning beshinchi noyabr kuni edi. Kursimiz sardori Anvar Karimov (olim, tarix fanlari nomzodi va jurnalist Anvar Karimov nazarda tutilmoqda) auditoriyaga tabassum bilan kirib kelib: “Diqqat! Xushxabarlik e'lon bor. Bugun o'quv mashg'ulotlaridan keyin hammamiz bir tanu bir jon bo'lib, Shayxontohurga boramiz. Kech soat oltida Toshkent telemarkazi ochilar ekan. Biz ulkan tarixiy voqeaning guvohi bo'lamiz”, dedi. Hammamiz quvonib ketdik va Shayxontohurga barchadan ilgari yetib keldik. U zamonlarda telemarkazning chor atrofi qing'ir-qiyshiq qurilgan ko'rimsiz, g'aribona uylar bilan o'rab olingan, xaloyiq bu yerda tiqilishib yashar edi. Endigina qurib bitkazilgan hashamatli telemarkaz binosi odamlar bilan gavjum... Ularning barchasi xushnud, xursand edilar...

...1956-yil 6-noyabr oqshomi! O'zbek xalqining shodligi daryoday toshgan oqshom! Bu kun xotiramizda eng nurli sana bo'lib qoldi”.

Darhaqiqat, u paytlarda “ko'rsatuv”, “diktora”, “rejissyor”, “efir” kabi so'zlar odamlar uchun qay darajada sirli va g'aroyib bir yangilik bo'lib tuyulganini anglash qiyin emas. Kattalarning aytishicha, oqshomlar odamlar televizor qarshisiga emas, balki o'zlarini mo'jizalar maydoniga kirib qolganday his eta boshlagan. Shunday qilib, televideniye o'z davrida millionlab odamlarni hayratga solgan, kuldirgan, yig'latgan



Yillar o'tgani sayin televideniye ham o'zining taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechira bordi. O'zbekiston televideniyesiga ilk tamal toshi qo'yilgan kundan boshlab, to bugunga qadar juda katta ijodiy maktab va jamoalar shakllandi. Televideniye har bir yo'nalishida ustoz-shogird an'anasi paydo bo'ldi va ular yillar mobaynida shakllanib bordi. Ushbu davr jurnalistikasi, umuman, teledasturlari haqida so'z borganda, dastavval, Ubaydulla Burhonov, Bobo Xo'jayev, Elbek Musayev, Jonrid Abdullaxonov, Armug'on Muhammedov, Maqsud Yunusov, Haybat Aliyev, Meli Mahkamov, Ergash Karimov, Mahkam Muhamedov, Ahmad A'zam, O'rol O'tayev, Anvar Isroilov, Qo'zjon Hakimov, Anvar Tojiyev, Ergash Raimov kabi o'nlab ijodkor-jurnalist va rejissyorlar nomi yodga keladi. Shu o'rinda O'zbekiston televideniyesining diktorlar guruhi shakllanishiga munosib hissa qo'shgan Iqbol Olimjonova, Ra'no Jo'rayeva, O'ktam Jobirov, Davron Zunnunov, Nasiba Qambarova, Mirzohid Rahimov, Ra'no Madrahimova, Nasiba Ibrohimova, Farhod Bobojonov, Nasiba Maqsudova, Galina Melnikova kabi ustozlarni ham eslash joiz. O'tgan asrning 70-80 yillariga kelib televideniye butun respublikani qamrab oldi va tayyorlanayotgan ko'rsatuvlar xalqimiz qalbidan munosib o'rin egallay boshladi. Bir so'z bilan aytganda, bu davrda O'zbekiston telejurnalistikasi alohida soha va fan sifatida jamiyat hayotida muhim o'rin egalladi. Turli janrlar paydo bo'la boshladi. Teatr va televideniye hamkorligi shakllandi. "Otalar so'zi – aqlning ko'zi", "Oynadan o'pkalama", "TV almanax", "Televizion miniatyuralar teatri", "Olamda nima gap" kabi turkum ko'rsatuvlar ana shu ijodiy hamkorlik samarasi natijasida e'fir yuzini ko'rdi. O'sha yillari "Marhabo talantlar", "Chashma", "Ofarin" kabi televizion tanlovlar juda mashhur bo'lib ketdi.

Ushbu davrda telejurnalistikada esse, ocherk, telejurnal janrlari yaxshi rivojlandi. Buyuk bobolarimiz – shoirlar, yozuvchilarning ijodi asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Ular haqida tayyorlangan ko'rsatuvlar, ijodiy kechalar, televizion uchrashuvlar, bebaho folklor merosimizga oid teledasturlar xalqimizning eng sevimli ko'rsatuvlariga aylandi. Chunki xalqimiz shu kabi ko'rsatuvlarga tashna edi. O'zbekiston mustaqil davlat bo'lgach, televideniya ham tub islohotlar boshlandi. Teleijodkorlar xalqimizning boy tarixi, qadriyatlari, buyuk bobolarimiz yaratgan o'lmas meros haqida, ajdodlarimiz hayotini aks ettiruvchi badiiy asarlar asosida turkum ko'rsatuvlar tayyorlashga kirishdi. Bu davrda "Mirzo Ulug'bek", "Bobur", "Layli va Majnun", "Kecha va kunduz", "So'nggi o'q", "Yusuf va Zulayho", "Sohibqiron", "Xorazmshoh", "Amir Muzaffar", "Moziydan bir sahifa",

“Mehrobdan chayon” kabi ko‘p qismli asarlar yaratildi. Bu kelajakda teleseriallar yaratishda o‘ziga xos muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

Shu tariqa televideniye yangi janrlar bilan boyib bordi. Moddiy-texnik bazasi ham mustahkamlana boshladi. Bu borada o‘ndan ziyod me‘yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi.

2006-yilda O‘zbekiston teleradiokompaniyasi O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi etib qayta tashkil etildi va tizimda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. O‘zMTRK tarixida 2012-yil 31-dekabr kuni yana bir unutilmas voqea sodir bo‘ldi. Shu kuni tizimda ikkita yangi – “Madaniyat va ma‘rifat” va “Dunyo bo‘ylab” telekanallari faoliyat boshladi. 2013-yil 1-iyundan “Yoshlar” teleradiokanali huzurida “Bolajon” telekanali efir yuzini ko‘rdi. Shu yili raqamli formatda “Kinoteatr”, “Navo”, “Oilaviy”, “Diyor” telekanallari tashkil etildi. Oradan bir yil o‘tib “Mahalla” ma‘rifiy teleradiokanali tashkil etildi. 2015-yilga kelib O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi barcha hududiy teleradiokompaniyalarining bir kunlik efir hajmi 24 soatga yetkazildi. Sohoni malakali kadrlar bilan ta‘minlash maqsadida teleradiokompaniya huzurida 8 ta mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha kadr tayyorlab beradigan o‘rta maxsus bilim yurti, shuningdek, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy axborot kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi va ushbu ta‘lim muassasalarining televideniye bilan amaliy hamkorlik aloqalari keng yo‘lga qo‘yildi.

Yangi O‘zbekiston televideniyesi

Yaqinda, 23-sentyabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida o‘zbek tilida nutq so‘zlab, butun dunyo e‘tiborini yana bir bor O‘zbekistonga qaratdi. Bu tarixiy nutqni barcha yurtdoshlarimiz televideniye orqali jonli efirda ko‘rib, faxrlandi. Bu unutilmas voqeani bejiz eslamadik. Keyingi yillarda O‘zbekiston xalqchil islohotlar diyoriga aylandi. Har jabhada o‘zgarishlar, yangilanishlar bo‘lmoqda. Donishmand xalqimiz qonidagi qudratli xislatlar, ezgu qarashlar kurtak ochib, quloch yozmoqda. Milliy iftixor, qadriyatlar jilolanmoqda. Ana shu muhim o‘zgarish jarayonida televideniye islohotlarining ham borligi quvonarli holdir. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 2-maydagi qarori bilan O‘zMTRK tizimida beto‘xtov faoliyat yuritadigan “O‘zbekiston-24” axborot-tahliliy teleradiokanali tashkil etildi. Zamonaviy jurnalistika asosida ish boshlagan teleradiokanalni tashkil etishdan maqsad aholiga xolis va ishonchli axborotni yetkazish, axborot muhitini sifatli mahsulotlar bilan to‘yintirish, muhim hodisalarni tezkorlik bilan yoritishni ta‘minlash edi.

Bugungi kunda “O‘zbekiston-24” teleradiokanali fuqarolarni qiynayotgan muammolar, joylardagi dolzarb masalalarni mutasaddi rahbarlar bilan ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotlarni tashkil etish orqali hal qilish vositasiga aylandi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan yana bir – “O‘zbekiston tarixi” telekanali tashkil etildi. Boy tariximizni yoritish, xalqimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan katta ilmiy, madaniy va ma‘naviy hissasi haqida mamlakatimiz aholisini, shuningdek, chet el jamoatchiligini keng ko‘lamda xabardor qilish maqsadida tashkil etilgan mazkur telekanalning ilk efiri 2019-yili mustaqilligimizning 28 yilligi munosabati bilan 1-sentyabrda amalga oshirildi.

O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi faoliyatida yana bir tarixiy voqea yaqinda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan bog‘liqdir.

Mazkur tarixiy farmonga muvofiq, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda tizimdagi axborot-tahliliy, ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy-gumanitar telekanallarini xorijiy davlatlarda teleradiokompaniyaning OTT platformasini (internet tarmog‘i orqali teledasturlarni namoyish etish tizimi) ishga tushirish va boshqa zamonaviy informatsion texnologiyalardan foydalangan holda namoyish etilishi yo‘lga qo‘yilmoqda. Farmon asosida “O‘zbekiston” telekanalida yurtimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analarini targ‘ib qiluvchi, mamlakatimizga oid axborot-tahliliy, ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy-gumanitar bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiluvchi va intellektual hamda boshqa ma‘lumotlarni xorijiy tillarda yoritadigan “Do‘stlik” axborot-ma‘rifiy dasturlar tahririyatini tashkil etish rejalashtirilgan. 2021-yil 1-yanvardan boshlab teleradiokompaniya tizimidagi markaziy telekanallarda ona tilimiz haqida “Tilga e‘tibor”, “Ona tilida so‘zlashamiz”, “Notiqlik mahorati”, “Til – millat ko‘zgusi”, “Kitob bilim manbai”, “Bilimli yoshlar – kelajak bunyodkori” kabi turkum ko‘rsatuv va eshittirishlar tashkil qilinib, muntazam ravishda efirga uzatib borilishining tobora ko‘payayotgani esa kishini yana-da quvontiradi.

Shunday qilib, o‘zining 65 yillik boy tarixi ega O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimida bugun jami 26 tele va 16 radiokanal 24 soat faoliyat ko‘rsatmoqda.

Keyingi yillarda televideniye qo‘lga kiritgan eng katta yutuqlardan yana biri raqamli televideniye o‘tish davri bo‘ldi. Odatdagi televizion ko‘rsatuvlardan yangi, yana-da sifatli daraja – raqamli teleko‘rsatuvlarning sun‘iy yo‘ldosh orqali dunyoning

yuздan ortiq mamlakatiga keng namoyish etilishi, o'ylaymizki, zamonaviy televideniye sohasining ulkan yutuqlaridan biridir.

O'zining qadimiy va boy tarixi bilan haqli ravishda faxrlanadigan O'zbekiston televideniyesi davr bilan hamqadam rivojlanib bormoqda. Zero, sohadagi izchil islohotlar natijasida bugungi kunda mamlakatimizdagi har bir oila yuqori sifatli televideniye xizmatlaridan bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldi. Darhaqiqat, mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida barcha sohalar qatori axborot olish va uni yetkazish, ayniqsa, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish borasida raqobat keskin rivojlanib bormoqda. Bunday jarayon esa OAV xodimlari, jumladan, teleijodkorlar oldiga yangi-yangi talab va vazifalarni qo'yimoqda. Shu bois, bugungi murakkab vaziyatda jamiyat hayotida televideniyeining o'rni va ta'sirini yana-da oshirish, xususan, uning xolis va haqqoniy axborot tarqatish, ochiqlik va oshkoralik, so'z va fikr erkinligidagi ahamiyatini tobora yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda ijodkorlar dunyoqarashi erkinlashishi natijasida tayyorlayotgan mahsulotlari ham kechagisidan tubdan farq qilmoqda. Ko'rsatuvlarda erkin mushohada yuritish, xolis, haqqoniy va xalqchil mavzularni yoritish masalasi asosiy o'ringa chiqmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarish va yangilanish jarayonlarini har tomonlama tahlil qilish, ayniqsa, joylardagi ijtimoiy muammolar, kamchiliklarga davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratish bugun telejurnalistlarning ham asosiy maqsadiga aylandi. Ijtimoiy salmog'i yengil bo'lgan, hisobot va balandparvozlik ruhidagi materiallar tayyorlashdan voz kechish, ko'proq xalqning dardini yoritish, aholini qiynayotgan muammolarni ekranga olib chiqish va ularga yechim izlashga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi.

Shu maqsadda milliy teleradiokompaniya tizimida keyingi 3-4 yil ichida xalq huquqiy madaniyatining yuksalishiga xizmat qiluvchi "Munosabat", "Sharh", "Qarama-qarshi", "Ob'ektiv nigohida", "Xalq fikri", "Fikr.uz", "Munozara maydoni", "Xalq qabulxonasida bir kun", "Jurnalist nigohida", "Xalq minbari" kabi tahliliy yo'nalishdagi o'nlab ko'rsatuv va tok-shou tashkil etildi va ular ko'p ming sonli teletomoshabin e'tiborini qozondi. Jamiyatda ilm-ma'rifat, adabiyot, milliy madaniyat va san'atimizni, shuningdek, kitobxonlikni keng targ'ib etishga yo'naltirilgan "Kitobxon shou", "San'at tarixi", "Islom: mohiyat va talqin", "Radio kitob", "Alyor" "Imom al-Buxoriy saboqlari", "Otalar so'zi – aqlning ko'zi", "O'zbekiston buyuk allomalar yurti", "Maqom san'ati" kabi o'nlab madaniy, ma'rifiy va badiiy ko'rsatuvlar namoyishi ham yo'lga qo'yildi. Bugunga kelib milliy

teleradiokompaniya ko'plab davlatlarning nufuzli teleradiokompaniyalari bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi.

Teleradiokompaniya ijodkorlari jahon miqyosida yuz bergan pandemiya tufayli vujudga kelgan murakkab vaziyat va qiyinchiliklarga qaramay, karantin davrida ham aholiga 24 soat mobaynida tezkor, ishonchli, xolis axborot yetkazib berish, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni atroflicha aks ettirishga yo'naltirilgan turli mavzu va janrlarga xos ko'plab rang-barang ko'rsatuvlarni namoyish etib bordi. Bu davrda O'zMTRK xodimlari bir tanu bir jon bo'lib yurtimizga kelgan bu baloga qarshi kurashishga o'z hissalarini qo'shishmoqda. Barchamiz uchun sinovli va mas'uliyatli davrda efirga uzatilayotgan ko'rsatuvlarning aksariyati jonli ravishda efirga uzatildi. Ayniqsa, "O'zbekiston" "Oilaviy", "Mahalla", "Madaniyat va ma'rifat" telekanallari orqali onlayn dars va onlayn maslahat dasturlarining tashkil etilgani va kunu tun namoyish etib borilgani xalqimiz tomonidan munosib qarshi olindi.

Yangi davr telejurnalistikasining yana bir ifodasini jonli efirlar soati ortgani misolida ham ko'rish mumkin. Avvalo, davlat miqyosidagi deyarli barcha tadbirlar, bayram dasturlari va konsertlar to'g'ridan-to'g'ri nafaqat o'zimizga, balki dunyo mamlakatlariga yuqori sifatda, o'ziga xos ko'rinish va formatda translyatsiya qilinmoqda. Keyingi yillarda "O'zbekiston-24", "O'zbekiston", "Toshkent", "Oilaviy", "Mahalla" telekanallarida "Axborot", "Tahlilnoma", "Yangiliklar", "Studiya-24", "Munosabat", "Oydin hayot", "Kun xabarlar", "Qarama-qarshi", "Assalom, O'zbekiston!", "Vaziyat-24", "Ochiq muloqot", "Xalq minbari", "Murosai madora", "Agroinnovatsiya" kabi ijtimoiy-siyosiy mavzudagi o'nlab dasturlar to'g'ridan-to'g'ri namoyish etiladigan bo'ldi. Yangilanayotgan O'zbekiston islohotlari ohangida bugun har bir ko'rsatuvda aytilayotgan mulohazalar xolis, haqqoniy va chuqur tahlillarga asoslangani holda keng jamoatchilikni fikrlashga undamoqda. Bu esa mamlakatimiz taraqqiyotida milliy teleradiokompaniyaning o'rni va rolini ko'rsatib bermoqda, desak xato bo'lmaydi. Shuningdek, bunday ijodiy jarayonlar, o'z navbatida, bugungi davr telejurnalistikasining o'ziga xosligi, taraqqiyoti va yuksalish jarayonlarini belgilashga xizmat qilmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.google.com/search?q=O%E2%80%98zbekiston+televideniye>
2. https://www.facebook.com/mtrkuzb/videos/ozbekiston-televideniyasi-kecha-va-bugun/1023661908501242/?locale=ms_MY
3. https://www.youtube.com/watch?v=ZG_AosewwJE

